



Pedagogika fanini o'rganishning bugungi dolzarb ahamiyati va maqsad, vazifalari

Soatova Rayxona Sadriiddin qizi

Termiz davlat pedagogika instituti

Pedagogika va san'at fakulteti

Pedagogika yo'nalishi talabasi

rayhonasoatova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek pedagogikasi fanining rivojlanish tarixi, vazifalari, maqsadlari, uni o'rganish tamoyillari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, maqolada pedagogika fanining jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rni, uning yoshlar ta'lim-tarbiyasidagi ahamiyati haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Pedagogika, maqsad, vazifalar, jamiyat, didaktika, yosh avlod, ta'lim, tarbiya nazariyasi.

Annotation: This article discusses the history of the development of the science of Uzbek pedagogy, its tasks, goals, and the principles of its study. The article also talks about the role of pedagogy in the development of society, its importance in the education of young people.

Key words: Pedagogy, purpose, tasks, society, didactics, young generation, education, theory of education.

Аннотация: В данной статье рассматривается история развития науки узбекской педагогики, ее задачи, цели и принципы ее изучения. Также в статье говорится о роли педагогики в развитии общества, ее значении в воспитании молодежи.

Ключевые слова: Педагогика, цель, задачи, общество, дидактика, молодое поколение, образование, теория образования.

Har bir davlat har tomonlama rivojlangan, barkamol avlodni voyaga yetkazish, uni qo'llab-quvvatlash va baxtli hayot kechirishini o'zining eng asosiy maqsadlaridan biri deb biladi. Negaki, yoshlar – kelajak bunyodkorlaridir. Insoniyatning tarixiy tajribasi shuni isbotladiki, ta'lim va tarbiya jarayoni yaxlitlikda, chambarchas, uzluksiz holda olib borilsa, milliy mafkura va qadriyatlar bilan sug'orilsa, xalq va millat hamish ulkan yutuqlarga erishadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “**Mana'viy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida**” 2019-






ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-8

Yil 3-maydagi PQ-4307-son qarori ijrosini ta'minlash, shuningdek, yoshlarni mustaqil hayotga dunyoqarashi keng, fidoyi fuqarolarni tarbiyalash maqsadida Vazirlar Mahkamasi **“Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiya”**si ishlab chiqildi. Bundan tashqari, yurtimizda pedagogika ta’lim tizimini yangi bosqichga ko’tarish, pedagog kadrlarni tayyorlash sifatini yanada takomillashtirish va oliy pedagogik ta’lim bilan qamrov darajasini oshirish borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda. Dunyoda va mamlakatimizda ta’lim barqaror taraqqiyotni ta’minlaydigan asosiy kuch sifatida e’tirof etilib, kompetensaviy yondashuvlar asosida ta’lim jarayonini yangi innovatsion tashkil etish, pedagogik diagnostika metodlaridan optimal foydalanish strategiyalari samaradorligini amalga oshirish va takomillashtirish orqali ta’lim oluvchilar uchun ularning hayoti davomida sifatli ta’lim olish imkoniyatini yaratish dolzarb masala kasb etadi. Har taraflama yetuk, komil insonni shakllantirish masalasining murakkabligi pedagogika fanining hozirgi zamon ta’lim nazariyasi hamda amaliyoti uchun dolzarbligi, muhimligini ko’rsatib beradi. Bu esa pedagogning mahorati, uning barkamolligi, chuqur bilim, ko’nikma va malakalari orqali amalga oshirish ehtiyoji yuzaga keltirmoqda.

O‘zbek pedagogikasi juda qadim tarixga ega bo‘lib, uning dastlabki ildizlari zardushtiylik dinining muqaddas kitobi “Avesto”da, O‘rxun-Enasoy bitiklariga, qadimiy Selung‘ur madaniyatiga borib taqaladi. “Avesto” kitobidagi “Ezgu fikr, ezgu so‘z va ezgu amal” haqidagi, kishilarga ko‘ngil ma’rifatini berish, bolalar tarbiyasi, turli qonuniyatlar borasidagi qarashlar yozma milliy pedagogik qarashlarning dastlabki namunasi bo‘lib, yetuk insonni shakllantirishga yo‘naltirilgan hisoblanadi. Milliy pedagogikamizning taraqqiyotida ayniqsa islom dini va tasavvuf ta’limoti hal qiluvchi o‘rin tutadi. Chunki Qur’oni karim, hadisi sharif va tasavvuf ta’limotining markazida yuksak axloq, komil insonni shakllantirish, Vatanga sadoqat, ilm olishga intilish, insonparvarlik, bag‘rikenglik, adolatlilik, halollik, poklik, tinchlik turardi. Inson unga ta’sir etuvchi omillardan biri bo‘lgan ta’lim-tarbiya yordamida, ya’ni pedagogika vositasida har tomonlama rivojlangan barkamol shaxs sifatida tarkib toptirilishi mumkin. Sharq mutafakkir olimlaridan Abu Nasr Forobiyning “Fozil odamlar shahri” asarida, Beruniy, Ibn Sino kabi bobolarimizning falsafiy qarashlaridan o‘rin olgan yetuk shaxslar, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy asarlarida tasvirlangan benuqson odamlar, Abduxoliq G‘ijduvoniy, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband, Alisher






ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-8

Navoiy, Bobur, Mashrab orzu qilgan komil inson o'zbek pedagogikasining markazida turardi. XVII asrdan boshlab, milliy pedagogikada ta'lim-tarbiyaning mohiyatiga emas, balki tashqi jihatlariga e'tibor kuchaydi, turmush talablarini hisobga olmay, hayotiy zamindan uzilish sodir bo'ldi. Natijada, jamiyat taraqqiyotida ko'plab og'ishlar, susayishlar paydo bo'ldi, ijtimoiy-siyosiy hayotda ham tanazzulga yuz tutildi. Pedagogikadagi biqirlilik, biryoqlamalilik kishilar ruhiyatiga ko'chdi, undan ijtimoiy tartibotlar va siyosiy qurilmalarga o'tdi. Butun bir yagona davlat xonliklarga bo'linib ketdi. Xonliklarning har birining ichida bir-biri bilan kelishmovchilik hamda o'zaro janjallar avj olib, mamlakat parokandalikka yuz tutdi. Negaki, jamiyat va unda yashaydigan insonlarning ma'naviy mafkura puxta tayin etilmagan edi. O'zboshimchalik, boshboshdoqliklar, xalq manfaatidan ko'ra amaldorlarning manfaati ustun qo'yilishi butun bir xalqni, millatni butun bir dunyodagi rivojlanishlardan ortda qolib ketishiga sababchi bo'ldi.

O'zbekistonning mustaqillikka erishishi natijasida mafkuraviy qolipdan, buyruqqa muvofiq fikrlash zug'umidan, qog'ozbozlikdan qutuldi. Mustaqillik milliy pedagogikaning sog'lom aql, milliy ruh va an'analarga xos tarzda yo'lga qo'yilishiga imkon yaratdi. Bugungi o'zbek pedagogikasi millat ruhiyatidagi nozik jihatlarni hisobga olgan va dunyo tarbiyashunosligidagi eng so'nggi yutuqlarga tayangan qolda taraqqiy etmoqda desak, aslo mubolag'a bo'lmaydi. Zamonaviy o'zbek pedagogikasida barkamol insonni shakllantirish rasmiy ravishda bosh maqsad qilib belgilangan. Bu pedagogik ta'lim-tarbiya jarayonida ta'lim oluvchi va tarbiyalanuvchilarning faol ishtirok etishlarini ko'zda tutadi. Bolalar, yoshlar pedagogik jarayonning ob'yektigina emas, balki sub'yekti, ya'ni ijrochisi ham ekanligiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayni vaqtda, barcha pedagogik tadbirlar ta'lim-tarbiya oluvchilarning mustaqil fikrlashlarini ta'minlash, ularni tarbiyalash va o'qishga bo'lgan qiziqishlarini uyg'otishga, yanada qiziqtirishga yo'naltirilgan holda tashkil etilmoqda. Bugungi o'zbek pedagogikasi uchun faqat bilimlar yig'indisi emas, balki bola shaxsi bosh qadriyatga aylangan. Shuning uchun ham milliy pedagogikada faqat bilimli o'quvchilar tayyorlashga emas, balki izlanuvchan, tashabbuskor shaxsni shakllantirishga asosiy e'tibor berilmoqda. O'zbek pedagogikasi faqatgina ta'lim berish bilan chegaralanib qolishni emas, balki ta'lim va tarbiyani birgalikda olib olib borish natijasida har tomonlama barkamol yosh avlodni yetishtirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan.





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-8

Pedagogika (yunoncha paidagogika soʻzidan olingan boʻlib, “bola yetaklayman” degan maʼnoni anglatadi) ijtimoiy tarbiyaning umumiy qonuniyatlari, muayyan jamiyatda yosh avlodni tarbiyalash hamda unga taʼlim berishning mohiyati va muammolarini oʻrganuvchi fandır. Pedagogika ijtimoiy fanlar tizimiga kiruvchi fan hisoblanib, yosh avlodni milliy istiqlol gʻoyalari asosida tarbiyalash, unga taʼlim berish muammolarini oʻrganadi.

Pedagogika fani inson shaxsini kamol toptirib, rivojlantirishning ikki muhim jihati – oʻqitish va tarbiyalashga asosiy urgʻuni qaratganligi uchun taʼlim nazariyasi va tarbiya nazariyasi fanning eng muhim tarkibiy qismlaridir.

Didaktika (taʼlim nazariyasi, yunoncha didaktikos «oʻrgatuvchi», didasko «oʻrganuvchi») taʼlimning nazariy jihatlari, taʼlim jarayonining mohiyati, qonun va qonuniyatlari, tamoyillari, oʻqituvchi va oʻqituvchi faoliyati, taʼlimning maqsadi, mazmuni, shakl, metod, vositalari, natijasi, taʼlim jarayonini takomillashtirish yoʻllari kabi masalalarni tadqiq etadi.


Tarbiya nazariyasi - pedagogikaning muhim tarkibiy qismlaridan biri boʻlib, tarbiya jarayonining mazmuni, tarbiya turlari, shakl, metod, vosita va usullari, uni tashkil etish masalalarini oʻrganadi.¹

Pedagogika taʼlim-tarbiya maqsadini jamiyat talablariga va oʻquvchilarning yosh xususiyatlariga qarab mazmunan oʻrganib borishni taqozo etadi, tarbiyaning tarkibiy qismlarini va ular oʻrtasidagi bogʻlanishlarni ochib beradi. Shu asnoda taʼlim va tarbiya sohasidagi tajribalarni umumlashtiradi, tarbiyaning kelgusidagi rivojlanish istiqbollarini, yoʻllarini koʻrsatib beradi².

Oʻzbekiston Respublikasida demokratik, insonparvar hamda huquqiy jamiyatni barpo etish sharoitida mazkur fan yuksak maʼnaviy axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlarni tarbiyalash tizimini ishlab chiqish ilgʻor xorijiy

¹Umumiy pedagogika: Oliy oʻquv yurti talabalari uchun darslik. SH.A.ABDULLAYEVA, H.CH.NUSRATOVA, F.A.ABDULLAYEV, A.B.TOʻRAYEV. Toshkent, 2021.

² Pedagogika: Oliy oʻquv yurtlari talabalari uchun darslik/ Oʻ.M. Asqarova, M. Xayitboyev, M.S. Nishonov. OʻzR Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligi. - T.: «Talqin», 2008 - 288 b.





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-8

tajribalar asosida ta'lim va tarbiya nazariyasini rivojlantirish vazifasini hal etadi. Mazkur jarayonda quyidagi vazifalarni bajarishga e'tibor qaratiladi:³

Analitik

- ta'lim va tarbiya jarayoni mazmuni, mohiyati, sabablari, aloqadorligini o'rganish;
- pedagogik tajribani tahlil etish, umumlashtirish va baholash.

Prognostik

- ilmiy asoslangan maqsadlarni belgilash va ta'lim-tarbiya tizimini rivojlantirish strategiyalarini belgilash;
- ta'lim siyosatini samarali boshqarishni ta'minlash

Metodologik

pedagogik fanlarning umumnazariy asoslarini aniqlashtirish

Tashkiliy

- yangi pedagogik texnologiy, innovatsion shakl va vositalarni ishlab chiqish;
- pedagogik tadqiqotlar natijalarini amaliyotga tadbqiq etish;
- ta'lim jarayonini boshqarishning ilmiy-metodik ta'minotini yaratish

Vazifalari

Ma'lumki, har bir fan o'zining tayanch tushunchalari, qonuniyatlari, qoidalar, tamoyillari tizimiga ega. Mana shu sifatlarining fan sifatida e'tirof etilishini ta'minlaydi. Kategoriya – fanning mohiyatini ochib beruvchi eng asosiy tushuncha. Pedagogika fanining eng muhim kategoriyalari qatoriga quyidagilar kiradi: shaxs,

³ Rayxona Sadriqqin qizi Soatova. (2023). Pedagogika fanining jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rni va vazifalari. "Образование и наука в XXI веке" xalqaro ilmiy jurnal. 495-500-betlar.





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-8

ta'lim, tarbiya, bilim, ko'nikma, malaka, kompetensiya, shakllantirish, ma'lumot, rivojlantirish.

Ijtimoiy tarbiya mohiyatini ilmiy jihatdan asoslash ma'lum pedagogik hodisaning muayyan vaziyatlarda namoyon bo'lish qonuniyatlarini bilishni taqozo etadi. Bizga ma'lumki, pedagogik hodisa murakkab tuzilmaga ega bo'lib, uning umumiy mohiyatini to'laqonli anglash uchun bir qator fanlarning imkoniyatlariga tayaniladi. Ana shu nuqtayi nazardan pedagogika bilan quyidagi fanlar o'rtasida yaqin aloqadorlik mavjud⁴:

- Psixologiya;
- Sotsiologiya;
- Falsafa;
- Tarix;
- Etika;
- Estetika;
- Fiziologiya;
- Gigiyena;
- Madaniyatshunoslik;
- Tibbiy fanlar;

Pedagogika fanida ba'zi pedagoglar tamoyil tushunchasini qonuniyat sifatida e'tirof etishga moyildirlar. Lekin qonuniyatlar obyektiv, eng muhim, barqaror, o'zgarishdagi, shu bilan birga, aniq sharoitlardagi harakatni ifoda etadi. Tamoyil bu – pedagogik jarayon qonuniyatlari asosida uni samarali tashkil qilishga nisbatan muayyan qo'yiladigan muhim talablar.

Yaxlit pedagogik jarayon tamoyillarining Yu.K.Babanskiy bo'yicha tasnifi:

- pedagogik jarayonning maqsadga yo'naltirilganligi;
- ta'lim va tarbiya mazmunining ilmiyligi;
- ta'lim oluvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish, tushunarlilik;

⁴ Umumiy pedagogikanazariyasi va amaliyoti. B.X.Xodjayev. "Sano-standart" nashriyoti. Toshkent, 2017.






- tizimlilik va ketma-ketlik;
- onglilik, faollik, tashabbuskorlik, ta'lim oluvchilarning ijodkorligi;
- ta'lim va tarbiyaning ijtimoiy foydali, ishlab chiqarish mehnati bilan aloqasi;
- ta'lim va tarbiyaning jamoaviy xarakteri;
- ko'rgazmalilik; » ongli talabchanlik bilan birgalikda ta'lim oluvchi shaxsini hurmat qilish;
- ta'lim va tarbiyaning qulay metod, shakl va vositalarini tanlab olish;
- sababiylik, onglilik hamda ta'lim, tarbiya va rivojlanishining amaliy natijalari;
- tarbiyaga kompleks yondashuv.⁵

Umuman olganda, pedagogika fanidagi barcha qonuniyatlar, prinsiplar, tarmoyillar, yaxlit pedagogik jarayon va uning tarkibiy qismlari ta'lim va tarbiya jarayoning samaradorligiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, pedagogika bu har bir inson kamolotini ta'minlash, ta'lim va tarbiya samaradorligiga erishishga qaratilgan jaayonlarning umumiy mohiyatini yoritadigan fandır. Pedagogik jarayon boshqa barcha ijtimoiy jarayonlar (iqtisodiy, siyosiy, axloqiy, madaniy va boshqalar) bilan chambarchas bog'langan hisoblanadi. Bugungi XXI asr goballashuv davrida yashar ekanmiz yosh avlodga o'z milliyligimizni saqlab qolgan holda ta'lim va tarbiyani berishimiz hamda yurtimiz ravnaqiga hissa qo'shadigan fidokor fuqarolarni tarbiyalashimiz lozim. Eng ulkan muammolardan biri bo'lgan tarbiyasizlik, axloqsizliklar, ommaviy axborot vositalariga qaramlik va ular natijasida kelib chiqayotgan jinoyatlar, ko'ngilsizliklarni oldini olish faqat ota-ona yoki vakillikka olgan shaxslar zimmasida emas emas, balki pedagoglarga ham bog'liq jarayon ekanligini unutmash lozimdir. Jamiyat taraqqiyoti, davlat rivojlanishi, yoshlarning dunyoqarashining keng bo'lishi ko'p jihatdan pedagog-ustozlarga ham bog'liq bo'ladi. Umuman olganda, fikimizcha, pedagogika fani bu – jamiyat rivojlanishining eng asosiy omillari va vositalaridan biri. Pedagog xodimlar bu

⁵ Umumiy pedagogikanazariyasi va amaliyoti. B.X.Xodjayev. "Sano-standart" nashriyoti. Toshkent, 2017.





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-8

mas'uliyat va vazifalarni chuqur anglab yetgan holda, yurtimiz kelajagi bo'lgan yoshlarni barkamol avlod bo'lib tarbiya topishiga ko'maklashishlari lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi" to'grisidagi 31.12.2019-yil 1059-son qarori
2. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. B.X.Xodjayev. "Sano-standart" nashriyoti. Toshkent, 2017.
3. Pedagogika: Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik. O'.M. Asqarova, M. Xayitboyev, M.S. Nishonov. T.: «Talqin», 2008 - 288 b.
4. Umumiy pedagogika: Oliy o'quv yurti talabalari uchun darslik. SH.A.Abdullayeva, H.CH.Nusratova, F.A.Abdullayev, A.B.To'rayev. Toshkent, 2021.
5. Rayxona Sadriqqin qizi Soatova. (2023). Pedagogika fanining jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rni va vazifalari. "Образование и наука в XXI веке" xalqaro ilmiy jurnal. 495-500-betlar.
6. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Pedagogika>

